



SAMMITDA YEVROPA ITTIFOQI VA MINTAQQA MAMLAKATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-iyun kuni Cho'ponota shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi yetakchilarining ikkinchi uchrashuvida ishtirok etdi.



БОРБОР АЗИЯ МАМЛЕКЕТ БАШЧЫЛАРЫ МЕНЕН ЕВРОПА КЕҶШИННИН ПРЕЗИДЕНТИНИН ЭКИНЧИ ЖОЛУГУШУСУ

2023-жылдын 2-июни, Чолпон-Ата шаары

SECOND MEETING OF HEADS OF STATE OF CENTRAL ASIA AND THE PRESIDENT OF THE EUROPEAN COUNCIL

June 2, 2023, Cholpon-Ata city

Qir'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov raisligida o'tgan tadbirda Yevropa Kengashi Prezidenti Shari Mishel, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari Nurmuhhammad Amannespov ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari hamda dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar muhokama qilindi.

O'zbekiston rahbari o'z nutqida yetakchilarning Ostonada o'tgan birinchi uchrashuvida so'ng o'tgan qisqa davrda konstruktiv siyosiy muloqot va ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar qilinganini ta'kidladi.

Jumladan, Mintaqaviy o'zaro bog'liqlik bo'yicha yuqori darajadagi konferensiya o'tkazilib, unda raqamlashtirish, transport kommunikatsiyalari, energetika va suv resurslarini boshqarish sohasidagi loyihalarni, shu jumladan, Yevropaning "Global darvoza" strategiyasi doirasida ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Markaziy Osiyoda barqaror energetika tizimini yaratish hamda professional ta'lim sohasida bir qator muhim mintaqaviy loyihalar boshlandi.

Fuqarolik jamiyati forumi, ikkinchi Iqtisodiy forum hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yig'ilishi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

— Bu tadbirlar bizning yevropalik sheriklarimiz bilan muloqotlarimiz sifat jihatidan va ijobiy o'zgarib borayotganini yana bir bor ko'rsatdi, — dedi Prezidentimiz.

Bugun Markaziy Osiyo Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari uchun jozibadorlik markazi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoniga aylanganini qayd etildi.

— Bu o'rinda so'z zamonaviy sanoat quvvatlarini yaratish, "yashil energetika"ni joriy etish, "aqlli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, rivojlangan transport-logistika infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan keng investitsiyaviy va texnologik sheriklik haqida bormoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekistonning Yevroitifoq bilan hamkorligiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz barcha darajalardagi muloqotlar sezilarli darajada faollashganini qayd etdi. Xususan, Fransiya, Germaniya, Vengriya va Chexiya yetakchilari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Budapesht va Stokgolmda elchixonalar ochildi. Yaqin orada Italiyaga rasmiy tashrif bo'lib o'tadi.

Davomi 2-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI" IKKINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Navbatdagi "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" formatidagi yetakchilar uchrashuvining barcha ishtirokchilarini qutlashdan mamnunman.

Qir'iz Respublikasi Prezidenti hurmatli Sadir Nurg'ojoyevich Japarovga sammit a'lo darajada tashkil etilgan hamda mintaqamizning eng xushmanzara maskanlaridan biri — Cho'ponota shahrida ko'rsatilayotgan har doimgidek iliq, samimiy mehmondo'stlik uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Yevropa Kengashi Prezidenti Shari Mishel janoblaringa ham alohida tashakkur bildiraman.

Aloqalarimizning samaradorligi ko'p jihatdan aynan sizning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan konstruktiv siyosiy muloqotni va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashingiz va qat'iy intilishingiz tufaylidir.

Hurmatli hamkasblar!

Ostonada ochiqlik, o'zaro ishonch ruhida va samarali o'tgan ilk uchrashuvimizdan buyon salkam bir yil o'tdi. Shu qisqa davrda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan haqiqatan ham katta ishlar amalga oshirildi.

O'tgan yilning noyabr oyida O'zbekistonda Mintaqaviy o'zaro bog'liqlik bo'yicha yuqori darajadagi konferensiya o'tkazildi. Unda raqamlashtirish, transport kommunikatsiyalari, energetika va suv resurslarini boshqarish sohasidagi loyihalarni, shu jumladan, yevropalik sheriklarimizning "Global darvoza" strategiyasi doirasida ilgari surishga alohida e'tibor qaratdik.

Markaziy Osiyoda barqaror energetika tizimini yaratish hamda professional ta'lim sohasida bir qator muhim mintaqaviy loyihalarni boshladik.

Mart oyida Toshkentda Fuqarolik jamiyati forumi, Olmaotadagi ikkinchi

Iqtisodiy forum, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan yillik yig'ilishi natijalarini alohida qayd etishni istar edim. Bu tadbirlar bizning yevropalik sheriklarimiz bilan muloqotlarimiz sifat jihatidan va ijobiy o'zgarib borayotganini yana bir bor ko'rsatdi.

Bugun Markaziy Osiyo Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari uchun jozibadorlik markazi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoniga aylandi.

Bu o'rinda so'z zamonaviy sanoat quvvatlarini yaratish, "yashil energetika"ni joriy etish, "aqlli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, rivojlangan transport-logistika infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan keng investitsiyaviy va texnologik sheriklik haqida bormoqda.

Hamkasblarimizning chiqishlarida statistik ma'lumotlar yangradi. Ularni takrorlab o'tirmayman. Shu bilan birga, qayd etmoqchiman, 2030-yilga qadar

uslub o'zgarishining ikki barobar o'sishiga erishish uchun barcha asoslarni bor.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hamkorligi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Mishel janoblari, sizning O'zbekistonga tarixiy tashrifingizdan so'ng barcha darajalardagi muloqotlar sezilarli darajada faollashdi. Biz Fransiya, Germaniya, Vengriya va Chexiya yetakchilari bilan uchrashuvlar o'tkazdik. Budapesht va Stokgolmda elchixonalar ochildi. Kelgusi haftada men Italiyaga tashrifni amalga oshirishni rejalashtirmoqdaman.

Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi "GSP+" tartibi tufayli barqaror o'sib bormoqda. O'tgan yili savdo hajmi 20 foizga oshgan bo'lsa, joriy yil boshidan buyon qariyb 70 foizga o'sdi. Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan yuqori texnologik

ishlab chiqarish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha istiqbolli loyihalar portfeli 20 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Strategik hamkorlarimiz orasida "Siemens", "Linde Group", "CLAAS", "Airbus", "BASF", "EDF", "Alstom", "Total", "Orano", "OTP Group" va ko'plab boshqajahonga mashhur korporatsiyalar bor. Shuni alohida ta'kidlamochimanki, qo'shma loyihalarning amalga oshirilishi Yevrosiyo qit'asining industrial xaritasini tubdan o'zgartirib yuborishga imkon beradi.

Gumanitar sohada Parijdagi Luvr va Berlindagi Yangi muzey bilan hamkorlikda ikkita noyob loyihani amalga oshirdik. Butun dunyoga mashhur ushbu san'at markazlarida ilk bor mintaqamizning boy madaniy-tarixiy merosini keng namoyish etdik.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!
Murakkab geosiyosiy vaziyat va

global iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror o'sishni namoyish etmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tahlilchilarining so'nggi o'rganishlariga ko'ra, mintaqadagi umumiy iqtisodiy o'sish joriy yilda 5,2 foizni va kelgusi yilda 5,4 foizni tashkil qiladi.

Yevropalik ekspertlar O'zbekistonda o'rtacha 6,5 foizlik yillik o'sishni prognoz qilmoqda. Ayni paytda biz 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmi va aholining real daromadlarini ikki barobar oshirib, daromadlari o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishni rejalashtiryapmiz.

Jadal sanoatlashirish siyosati, shu jumladan, qayta ishlab tarmoqlarga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish ushbu maqsadga erishishning asosiy omili bo'ladi.

Davomi 2-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIY XIZMAT VA YORDAM KO'RSATISH HAMDA UNING SAMARALI NAZORAT TIZIMINI YO'LGA QO'YISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TO'G'IRISIDA

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barabarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarning huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Xususan, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e'lon qilingan ijtimoiy davlat tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mullaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida:

1. Quyidagilar davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin: kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish;

ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash;

ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish;

xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali ularning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish;

nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish.

Davomi 3-betda

2023 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 9-IYUL PREZIDENTI SAYLOVI

TARAQQIYOT YO'LI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA

saylov tizimining huquqiy poydevori

Saylov demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri bo'lib, u orqali mamlakatning taraqqiyoti va istiqbolli namoyon bo'ladi. Bu xalqning o'z xohish-irodasini bildirishi, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etishining asosiy shaklidir. O'z navbatida, saylovda qatnashish asosida faol fuqarolik pozitsiyasini ilgari surish xalqimizning yuksalib borayotgan siyosiy tafakkurini, ijtimoiy faolligi va elektoral madaniyatini namoyon qiladi.

Davomi 4-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING “MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI” IKKINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Yevropalik do‘stlarimiz va sheriklarimiz milliy rivojlanish dasturlari va ortga qaytmas islohotlar strategiyasini bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashi muhim ekanini alohida ta’kidlamochim.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sammitning taklif etilgan kun tartibini hisobga olib, hamkorlikning quyidagi ustuvor va o‘zaro manfaatli yo‘nalishlariga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchisi — bu savdo. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan savdo munosabatlarini tubdan kengaytirishdan, eng avvalo, barqaror savdo-logistika zanjirlarini va o‘zaro mahsulot yetkazib berishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratishdan manfaatdor.

“GSP+” tartibining taqdim etilishi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarini tashqi savdo faoliyatiga jalb qilish va shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishda rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Biz ushbu shartlarning amal qilish muddatlarini yangi davrga uzaytirishdan manfaatdormiz. Ushbu preferensiyalar tizimining mintaqadagi barcha mamlakatlarga tatbiq etilishi iqtisodiyotlarimizning industrial salohiyati va raqobatbardoshligi ortishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Bunga misol tariqasida eksportchilarimiz Yevropa bozoriga umumiy qiymati 4 milliard yevro bo‘lgan 500 nomdagi sanoat tovarlarini yetkazib berishga tayyor ekanini qayd etmoqchiman.

Shu bilan birga, mintaqamizda Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiq zamonaviy laboratoriyalar, standartlashtirish va sertifikatlash markazlari tarmoqlarini yaratish, Yevropa bozorlarida ishlash uchun eksport qiluvchilarimizning bilim va salohiyatini rivojlantirish, Yevropa kompaniyalarining mintaqa mamlakatlari savdo imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish kabi alohida masalalar ham mavjud.

Afsuski, bu masalalarning barchasi bo‘yicha hanuzgacha sezilarli natijalarga erishilgani yo‘q. Ularni hal etish uchun Mamlakatlarimiz eksport va import qiluvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni qabul qilish jarayoni tez fursatda yakunlanishi ham ushbu vazifaning ijrosiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan — barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida o‘zaro bog‘langan transport yo‘laklarini shakllantirish.

Markaziy Osiyo va Yevropaning transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqligini, eng avvalo, “O‘rta marshrut” deb nom olgan Transkaspiy tranzit yo‘lagini shakllantirish orqali rivojlantirish maqsadida mamlakatlarimizning sa‘y-harakatlarini birlashtirish muhimdir.

Ta’kidlash joizki, ushbu loyiha yaqinda Samarqandda o‘tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilari uchrashuvida puxta tahlil qilindi.

Afsuski, ushbu magistrat raqobatbardoshligini oshirish masalasida o‘zaro muvofiqlashgan yondashuv hanuzgacha mavjud emas. Bugun yuk tashishning asosiy hajmini hosil qilayotgan biznes uchun manfaatli bo‘lgan tariflar kerak. Biroq tahlillar ko‘rsatayotganidek, ushbu yo‘nalishdagi joriy tarif va yig‘imlar, masalan, muqobil bo‘lgan Shimol — Janub yo‘nalishlaridagidan 1,5 barobar baland.

Transport-logistika va port infrastrukturalarini yuklar oqimining prognoz qilinayotgan o‘shishiga mos ravishda kengaytirish hamda yo‘l qoplamasining texnik holatini yaxshilash masalalari ham muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan Transkaspiy yo‘lagi salohiyatidan foydalanishning doimiy, ta’sirchan mexanizmini yaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu mamlakatlarimiz transport idoralari vakolatli vakillarining doimiy uchrashuvlarini o‘tkazib borishni nazarda tutadi.

Shuningdek, yevropalik hamkorlar tomonidan Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasida barqaror transport yo‘laklarini shakllantirish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning muhim ahamiyatini qayd etmoqchiman.

Uchinchidan — investitsiyaviy va texnologik sheriklik.

Imkoniyatlarimiz va umumiy rejalarimiz xususida men batafsil to‘xtalib o‘tdim. O‘ylaymanki, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” iqtisodiy forumi doirasida har yili

sanoat-texnologiya ko‘rgazmalarini o‘tkazish masalasini ko‘rib chiqish vaqti keldi.

Bugungi voqeilikdan kelib chiqib, Yevropa investitsiya banki bilan birgalikda Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishlab chiqarish quvvatlarini mamlakatlarimizga ko‘chirish jarayonida ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning maxsus vositalarini ishga tushirishdan manfaatdormiz.

Bankning mintaqaviy ofisi O‘zbekistonda faoliyat yuritishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta’minlashga tayyorligimizni tasdiqlaymiz.

To‘rtinchidan — raqamli o‘zaro bog‘liqlik sohasida Yevroitifoq bilan yaqindan hamkorlik qilish niyatidamiz.

Jahon banki mutaxassislarining tadqiqotlariga ko‘ra, yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkoniyatlarining yanada kengaytirilishi mintaqa mamlakatlari yalpi mahsuloti va eksporti hajmining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

Bu boradagi “Yevropa jamoasi” tashabbusini qo‘llab-quvvatlaymiz hamda “Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi”ni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz.

Beshinchidan — iqlim sohasidagi xatarlarga qarshi kurashish.

Bu yerda, avvalambor, Yevropaning ilg‘or bilim va texnologiyalarini qo‘llagan holda maqsadli mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish hisobidan iqlimni barqarorligini oshirish haqida so‘z bormoqda.

Bundan tashqari, bugun O‘zbekistonda “yashil energetika” faol rivojlanib bormoqda. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarini 25 ming megavattgacha oshirish va uning ulushini hozirgi 14 foizdan 40 foizgacha yetkazishni reja qilganmiz.

Bugun mening hamkasblarim ekologiya masalalariga batafsil to‘xtaldilar. Masalaning g‘oyat dolzarbligini hisobga olib, Yevropa Ittifoqini shu yil kuzda Umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi Samarqand tashabbusi doirasida o‘tkaziladigan birinchi Xalqaro iqlim forumining ham tashkilotchilaridan biri bo‘lishga chaqiramiz.

Biz sheriklarimizning Markaziy Osiyo atrof-muhitni va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetini tashkil etish loyihasida faol ishtirok etishidan ham manfaatdormiz.

Oltinchidan — turizmni rivojlantirish.

Ushbu tarmoq pandemiyadan keyin tez qayta tiklanayotganini va barqaror yuqori o‘shish sur‘atini ko‘rsatayotganini ta’kidlash joiz. Shunga qaramay, Markaziy Osiyoning ulkan turizm salohiyati bugungi kunda to‘liq ishga solinmayapti.

Markaziy Osiyo uchun barqaror turizmni rivojlantirishga ko‘maklashish dasturini birgalikda ishlab chiqish va uni joriy yil oktabr oyida O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sammitida taqdim etishni taklif qilamiz.

Ushbu dastur infratuzilmani modernizatsiya va tarixiy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha aniq loyihalarni, aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish va sonini ko‘paytirish, butun mintaqa uchun mo‘ljallangan yagona turizm mahsulotlari va yo‘nalishlarni ishlab chiqish hamda viza tartibotlarini soddalashtirish masalalarini qamrab oladi.

Yettinchidan — yoshlar ta’limiga investitsiya kiritish.

O‘zbekistonda Yevropaning yettita universiteti filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Lekin bu yetarli emas.

Yaqin istiqbolda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan sheriklikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma ta’lim dasturlarini, birinchi navbatda, texnika mutaxassisliklari bo‘yicha joriy qilish niyatidamiz.

Ta’lim vazirlari va universitetlar rektorlarining shu formatdagi muntazam uchrashuvlarini qayta tiklash tarafdormiz.

“Yevropa uqlari” dasturi doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ilmiy-tadqiqot va ta’lim loyihalarini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish imkoniyatini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Xavfsizlik sohasida yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash birgalikdagi ishlarimizning eng muhim yo‘nalishidir.

Bugun chegaralarni himoya qilish, narkotrafik va terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha qo‘shma dasturlarni samarali amalga oshirmoqdamiz.

So‘ngi yillarda ikki yuzdan ortiq mintaqaviy tadbirlar o‘tkazildi. Yevropalik hamkorlar ko‘magida minglab yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi, chegara punktlari modernizatsiya qilindi.

Ekstremizm va radikalizm, odam savdosi, uyushgan va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish hamda chegaralarni qo‘riqlash sohasida yangi sheriklik dasturlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Shu maqsadda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi: xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning yangi kun tartibi” mavzusida ekspertlar konferensiyasini o‘tkazishni taklif etamiz.

Afg‘oniston muammosi e’tiborimiz markazida bo‘lib turibdi. Ming afsuski, Afg‘onistondagi gumanitar vaziyat tez sur‘atda yomonlashib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda millionlab afg‘onlar halokat yoqasida turibdi.

Shu munosabat bilan sheriklarimizni afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami hajmini kamaytirmaslikka chaqiramiz. Shu maqsadda Termizdagi logistika xabi imkoniyatlarini bundan buyon ham taqdim etishga tayyormiz.

Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solish va uning tinch taraqqiyotiga ko‘maklashish borasidagi dolzarb masalalar yechimi yuzasidan umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun maxsus vakillarimizning muntazam maslahatlashuvlarini davom ettirishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Bugun hamkasblarimizning chiqishlarida Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Bildirilgan har bir taklif ekspertlarimiz tomonidan diqqat bilan o‘rganib chiqilishi juda muhimdir. Shu munosabat bilan uchrashuvimiz yakunlari bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Muloqotlarimizni muntazam o‘tkazib borish to‘g‘risidagi taklifni ham qo‘llab-quvvatlayman. Ushbu formatdagi ilk sammitni kelgusi yilda O‘zbekistonda o‘tkazish borasidagi tashabbusimiz qo‘llab-quvvatlangani uchun minnatdorlik izhor etaman.

Ushbu uchrashuv yakunlari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlaydi, mintaqada tinchlik va barqarorlik, izchil taraqqiyot va ravnaqni ta’minlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

SAMMITDA YEVROPA ITTIFOQI VA MINTAQA MAMLAKATLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Boshlanishi 1-betda

Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi “GSP+” tartibi tufayli joriy yil boshidan buyon qariyb 70 foizga o‘sti. Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan yuqori texnologik ishlab chiqarish va yo‘l o‘rinlarini yaratish bo‘yicha istiqbolli loyihalar portfeli 20 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Gumanitar sohada Parijdagi Luvr va Berlindagi Yangi muzey bilan hamkorlikda ikkita noyob loyiha amalga oshirildi. Ushbu san’at markazlarida ilk bor mintaqamizning boy madaniy-tarixiy merosi keng namoyish etildi.

O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek, murakkab geosiyosiy vaziyat va global iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarga qaramsadan, Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror o‘shishni namoyish etmoqda.

Shu munosabat bilan yevropalik sheriklar milliy rivojlanish dasturlari va ortga qaytmas islohotlar strategiyasini bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashi muhim ekani ta’kidlandi.

Sammit kun tartibidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Yevroitifoq bilan savdo munosabatlarini tubdan kengaytirish uchun O‘zbekiston yetakchisi mamlakatimiz barqaror savdo-logistika zanjirlarini va o‘zaro mahsulot yetkazib berishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish, “GSP+” tartibining amal qilish muddatini uzaytirish va ushbu tizimni mintaqaning barcha mamlakatlarga tatbiq etilishidan manfaatdorligini bildirdi.

Shu bilan birga, bir qator masalalar bo‘yicha sezilarli siljish kuzatilmayotgani qayd etilib, ularni hal qilish uchun Mintaqa mamlakatlarining eksport va import qiluvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik

to‘g‘risidagi bitimni qabul qilish jarayoni tez fursatda yakunlanishi ham ushbu vazifaning ijrosiga xizmat qilishi qayd etildi.

O‘zaro bog‘langan transport yo‘laklarini shakllantirish barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omilidir.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo va Yevropaning transport-kommunikatsiyaviy bog‘liqligini, eng avvalo, “O‘rta marshrut” deb nom olgan Transkaspiy tranzit yo‘lagini shakllantirish orqali rivojlantirish maqsadida sa‘y-harakatlarini birlashtirish muhimdir.

Afsuski, ushbu magistrat raqobatbardoshligini oshirish masalasida o‘zaro muvofiqlashgan yondashuv hanuzgacha mavjud emas. Bugun yuk tashishning asosiy hajmini hosil qilayotgan biznes uchun manfaatli bo‘lgan tariflar kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Transport-logistika va port infratuzilmalarini kengaytirish, yo‘l qoplamasining texnik holatini yaxshilash, transport idoralari vakolatli vakillarining muntazam uchrashuvlarini o‘tkazish orqali Transkaspiy yo‘lagi salohiyatidan foydalanishning ta’sirchan mexanizmini yaratish masalalari ham muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyaviy va texnologik sheriklik sohasida O‘zbekiston Prezidenti “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” iqtisodiy forumi doirasida har yili sanoat-texnologiya ko‘rgazmalarini o‘tkazish masalasini ko‘rib chiqishni taklif qildi.

Bugungi voqeilikdan kelib chiqib, Yevropa investitsiya banki bilan birgalikda Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishlab chiqarish quvvatlarini mamlakatlarimizga ko‘chirish jarayonida ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning maxsus vositalarini ishga tushirish tashabbusi ham ilgari surildi.

Raqamli o‘zaro bog‘liqlik borasida “Yevropa jamoasi” mexanizmidan foydalangan holda “Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi”ni birgalikda ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbari Yevropaning ilg‘or bilim va texnologiyalarini qo‘llagan holda maqsadli mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish hisobidan iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va ekotizimlar barqarorligini oshirish masalalariga alohida to‘xtaldi.

Masalaning g‘oyat dolzarbligini hisobga olib, Yevropa Ittifoqini shu yil kuzda Umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi Samarqand tashabbusi doirasida o‘tkaziladigan birinchi Xalqaro iqlim forumining ham tashkilotchilaridan biri bo‘lishga chaqiramiz, — dedi Prezident.

O‘zbekiston sheriklar Markaziy Osiyo atrof-muhitni va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetini tashkil etish loyihasida faol ishtirok etishidan ham manfaatdor ekani qayd etildi.

Markaziy Osiyoning turizm salohiyatidan faol foydalanish maqsadida davlatimiz rahbari mintaqa uchun barqaror turizmni rivojlantirishga ko‘maklashish dasturini birgalikda ishlab chiqish va uni joriy yil oktabr oyida O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sammitida taqdim etishni taklif qildi.

Yoshlar ta’limiga sarmoya kiritishning ahamiyatini hisobga olib, Prezidentimiz Yevroitifoq mamlakatlarining yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan sheriklikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish taklifini bildirdi.

Mamlakatimiz yetakchisi ta’lim vazirlari va universitetlar rektorlarining muntazam uchrashuvlari qayta tiklanishi hamda “Yevropa uqlari” dasturi doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ilmiy-tadqiqot va ta’lim loyihalarini qo‘llab-quvvatlash kengaytirilishi tarafdori ekanini ta’kidlandi.

Qayd etilganidek, xavfsizlik sohasida yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ekstremizm va radikalizm, odam savdosi, uyushgan va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish hamda chegaralarni qo‘riqlash

sohasida sheriklik dasturlarini ishlab chiqish birgalikdagi ishlarining eng muhim yo‘nalishidir.

— Shu maqsadda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi: xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning yangi kun tartibi” mavzusida ekspertlar konferensiyasini o‘tkazishni taklif etamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Afg‘onistondagi gumanitar vaziyat tez sur‘atda yomonlashib borayotganiga e’tibor qarab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamkorlarni afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami hajmini kamaytirmaslikka chaqirdi va shu maqsadda Termizdagi logistika xabi imkoniyatlarini taqdim etishga tayyorligini bildirdi.

Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solish va uning tinch taraqqiyotiga ko‘maklashish borasidagi dolzarb masalalar yechimi yuzasidan umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun maxsus vakillarning muntazam maslahatlashuvlarini davom ettirish taklif qilindi.

So‘zining so‘ngida davlatimiz rahbari uchrashuv yakunlari bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlandi.

Prezidentimiz “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi to‘liq formatli sammitini kelgusi yilda O‘zbekistonda o‘tkazish tashabbusi qo‘llab-quvvatlangani uchun minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari matbuot uchun Qo‘shma bayonot qabul qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sammit doirasida Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel bilan uchrashdi.

O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni yanada mustahkamlash va mintaqaviy formatda amaliy hamkorlikni rivojlantirishga oid masalalarning keng doirasi ko‘rib chiqildi.

Yevrokengash Prezidenti Sharl Mishel davlatimiz rahbarini Konstitutsiya bo‘yicha

referendumning natijalari bilan samimiy qutlab, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlar dasturini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini bildirdi hamda bo‘lajak muhim siyosiy tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tishini tiladi.

Tomonlar 2022-yil oktabr oyida Toshkent shahrida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvda erishilgan kelishuvlarga muvofiq ikki tomonlama muloqot va almashinuvlarda yuqori sur‘at kuzatilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Ushbu davrda O‘zbekistonda Mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha birinchi konferensiya, navbatdagi Fuqarolik jamiyati forumi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

O‘zbekistonning YI davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi joriy yil boshidan buyon 70 foizga oshdi. Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori texnologik tarmoqlaridagi investitsiya loyihalari portfeli 20 milliard yevrodan ortdi.

O‘zbekiston va YI yetakchilari ikki tomonlama savdoni diversifikatsiya qilish va hajmini oshirish, “GSP+” imtiyozli savdo tizimining amal qilish muddatini uzaytirish, samarali transport yo‘nalishlari, eng avvalo, Transkaspiy tranzit yo‘lagini rivojlantirish, “yashil energetika”, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish, ekologiya, ta’lim, turizm va boshqa sohalarda qo‘shma dasturlarni amalga oshirish masalalariga alohida to‘xtaldilar.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Afg‘oniston bo‘yicha maslahatlashuvlarni va ushbu mamlakatga insonparvarlik yordamini davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Shu bilan O‘zbekiston Prezidentining Qirg‘izistonga amaliy tashrfi yakunlandi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

AHOLIGA SIFATLI IJTIMOY XIZMAT VA YORDAM KO'RSATISH HAMDA UNING SAMARALI NAZORAT TIZIMINI YO'LGA QO'YISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** (keyingi o'rinlarda — Agentlik), shuningdek, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilsin.

3. Quyidagilar: **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari** 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan vazirlik va idoralarining muvofiqashtiriladigan va monitoring qilnadigan faoliyat yo'nalishlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar Agentlik tuzilmasiga o'tkazilsin:

a) **2023-yil 15-iyundan boshlab Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidan:**

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari; Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlari;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlari;

Odamlar savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi;

keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uyi;

Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansonati; keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar;

b) **2024-yil 1-yanvardan boshlab: Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidan** bolalar uylari;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan mehribonlik uylari; mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oila-viy bolalar uylari;

d) **2024-yil 1-avgustdan boshlab: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan** alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ko'p

tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidan imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari;

e) **2025-yil 1-yanvardan boshlab: Ichki ishlar vazirligi tizimidan** muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidan Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi. O'zbekiston Milliy parolimpiya qo'mitasining **Paralimpiyachilarning matonat maktabini 2023-yil 15-iyundan** Agentlik tuzilmasiga o'tkazish hamda Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash institutining faoliyatini hamkorlikda muvofiqashtirish bo'yicha taklifi ma'qullansin.

Belgilansinki, mazkur banda ko'rsatilgan tashkilotlar va tarkibiy tuzilmalar amaldagi moliyalashtirish mabvalari, shtat birliklari, huquq va majburiyatlari, mol-mulki hamda boshqa tovar-moddiy boyliklari bilan birgalikda to'laigicha Agentlik tuzilmasiga o'tkaziladi.

5. Ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish maqsadida **2023-yil 1-iyuldan** boshlab Agentlikning tuman (shahar)lardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida **ijtimoiy xodimlar guruhlari** tashkil etilsin va quyidagilar ularning asosiy vazifalari etib belgilansin:

har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;

oilalarning **iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini** o'rganish natijasida ularning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish;

ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan, keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish, ulardan ijtimoiy xizmatlar va yordam olish bo'yicha **buyurtmalar** qabul qilish, zaruratga qarab buyurtmalarni mas'ul vazirlik va idoralarga yuborish;

og'ir ahvolda tushib qolgan va og'ir ahvolda tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilish borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish.

6. Belgilansinki: Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi **Yagona davlat siyosatini ishlab chiqish**

va amalga oshirish bo'yicha vakolati davlat organi hisoblanadi;

Agentlik o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan **mustaqil ravishda amalga oshiradi.**

7. Agentlik huzurida quyidagilar tashkil etilsin:

Ijtimoiy inspeksiya hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari; **Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi;** **Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti;**

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning bo'linmalari negizida Agentlik markaziy apparati tarkibida **Nogironligi bo'lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi** hamda uning **hududiy bo'limlari.**

8. O'z vazifalarini amalga oshirishda Agentlikka quyidagi **huquqlar berilsin:**

vakolati davlat organlariga aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha dasturlar talablarini bajarmaganligi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan chora-tadbirlarni qo'llash bo'yicha **taqdimnomalar kiritish;**

o'z vakolatlari doirasida umumijamjamiy bo'lgan **normativ-huquqiy hujjatlar** qabul qilish;

o'z vakolati doirasida ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan **ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar** tuzish;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlar bazasidan **real vaqt rejimida foydalanish;**

davlat organlari va tashkilotlaridan zarur statistik, tahliliy hamda boshqa **ma'lumotlarni so'rash va olish;**

ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga **davlat granti asosida imtiyozli tarzda** o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash;

o'z vakolatlari doirasida **maslahat-kengash organlari va ekspert komissiyalarini** tashkil etish;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun **davlat organlari va tashkilotlarining mutaxassislarini jalb etish;**

ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo'yicha **xalqaro hamkorlar**, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlik yuzasidan va boshqa shartnomalarni tuzish.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmasiga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha maslahatchisi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori** lavozimi kiritilsin;

Ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha shu'ba tashkil etilsin.

10. Agentlik: a) **2023-yil 15-iyulga** qadar YUNISEFning ekspertlarini jalb qilgan holda va ularning dasturlariga muvofiq ijtimoiy xodimlarni qayta tayyorlash va ularning **malakasini oshirish tizimini** yo'lga qo'ysin.

Bunda, xorijiy va mahalliy malakali ekspertlarni jalb qilgan holda **aholiga mahalla darajasida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish** mutaxassislarini tayyorlashga e'tibor qaratilsin;

b) **2023-yil 1-avgustga** qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistraturasida ijtimoiy xodimlarni o'qitish dasturlarini qayta ko'rib chiqilsin;

d) **2023-yil 15-avgustga** qadar aholini ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlari bo'yicha, shu jumladan, ularning mobil aloqa vositalariga ma'lumot yuborish orqali xabardor qilish amaliyotini joriy etsin;

e) **2023-yil 1-sentabrga** qadar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay muhitni tashkil qilish bo'yicha taklif kiritilsin;

f) quyidagilarni: **2023-yil 1-iyulga** qadar aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish vazifalari Agentlikka o'tkazilishi munosabati bilan boshqa vazirlik va idoralari, shu jumladan, mahalla darajasida faoliyat yuritayotgan tuzilmalarining **takrorlovchi funksiyalarini bekor qilishga oid** normativ-huquqiy hujjat loyihasi;

2023-yil 1-avgustga qadar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda aholining **ijtimoiy muammolarini mahalla darajasida hal etishga qaratilgan professional xizmat ko'rsatish** tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini;

2023-yil 1-sentabrga qadar manfaatdor vazirlik va idoralari bilan birgalikda Agentlik tuzilmasiga o'tkazilgan **ijtimoiy muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish** hamda rivojlantirish bo'yicha takliflarni;

2024-yil 1-yanvarg qadar mehnatga layoqatli **aholini ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olish**

darajasini oshirishga oid takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin;

e) **2024-yil 1-yanvarg** qadar: **davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish standartlarini** hamda ularning ijrosini monitoring qilish mezonlarini;

nogironligi bo'lgan shaxslarni uyda parvarishlash bilan band bo'lgan oila a'zolariga ko'maklashish bo'yicha ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqsin;

j) **nodavlat notijorat tashkilotlari** va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini yo'lga qo'ysin;

z) ijtimoiy himoya sohasidagi muammo va takliflarni muhokama qilish, yangi loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha **jamoatchilik vakillaridan iborat** kengash tashkil etilsin.

11. Agentlik Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan birgalikda **2023-yil 1-oktabrga qadar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimini** ishga tushirsin, uning zarur idoraviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyasini va doimiy takomillashtirib borilishini ta'minlasin.

12. Belgilansinki: a) **2023-yil 1-oktabrdan** boshlab: "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi Agentlik tasarrufiga o'tkaziladi;

aholiga ko'rsatiladigan barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar va yordamlar, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar **"Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi** orqali qabul qilinadi;

b) "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimini joriy etish doirasida:

Agentlik so'roviga asosan "Raqamli O'zbekiston—2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqashtirish komissiyasi tomonidan vazirlik va idoralarning **elektron ma'lumotlar bazalari integratsiyasi ta'minlanadi;**

aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordam

ko'rsatish, **fuqarolardan murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish uchun elektron tarzda mutasaddi vazirlik va idoralarga yuborish** hamda jarayonni monitoring qilish asosida amalga oshiriladi; mazkur banda nazarda tutilgan elektron axborot bazalari ma'lumotlari asosida **har bir fuqaroning iqtisodiy-ijtimoiy holati**, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini aks ettiradigan **ijtimoiy pasportlar joriy etiladi;**

2024-yil 1-yanvardan boshlab "Mehr daftari", "Saxovat va ko'mak", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" orqali ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va ko'maklar qamrab olinadi.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha **2023-2025-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlari dasturi** 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. Har haftaning juma kuni **"Mehr va saxovat kuni"** sifatida belgilanib, barcha davlat organlari va tashkilotlari ehtiyojmand aholi, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda yolg'iz keksalar holdan xabar olish, ularga g'amxo'rlik qilish hamda xayriya tadbirlarini o'tkazsin.

15. Agentlik huzurida **2023-yil 1-oktabrdan boshlab Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi** tashkil etilsin hamda jamg'arma mablag'larining xarajatlari yo'nalishlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

16. Agentlik **2023-yil 1-sentabrga** qadar Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

Bunda, Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'larini oluvchilar hamda moliyalashtirish manbai kesimida ma'lumotlar shakllanishi va xarajat qilinishining **ochiqligi va shaffofligini ta'minlash** mexanizmini joriy etish ko'zda tutilsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga 5-ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

18. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.



XALQARO HAMKORLIK

Zumrad G'OIBNAZAROVA, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori, Anora QAHHOROVA, universitet o'qituvchisi

Yevropa mamlakatlari madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analari Markaziy Osiyo xalqlaridan farq qiladi. Qadriyatlar va turli mavzulardagi qarashlarning jihatlari ko'zga oson tashlanadi. Ammo bu o'zaro munosabatlar, hamkorlik aloqalarini kengaytirib borishga to'siq bo'lolmaydi. Aksincha, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamda xalqaro muammolarga oid umumiy manfaatlar turli masalalar bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, dunyoda mavjud murakkab geosiyosiy jarayon va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar, global siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, zamonaviy tahdidlar mintaqalar hamda davlatlar o'rtasidagi hamjihatlik, o'zaro manfaatli sheriklikni yanada kengaytirish zarurati o'rtaga qo'yadi. Bu boradagi sa'y-harakatlar ham ancha faollashgan. Shu yilning 2-iyun kuni Qirg'izistonning Cho'ponota shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi ikkinchi sammiti buning yorqin misolidir.

IKKI QIT'ANI BIRLASHTIRAYOTGAN UMUMIY MANFAATLAR



Bir qarashda, ikki mintaq ham alohida tarzda jadal rivojlanyapti va bir-biriga bog'liq emasdek ko'rinadi. Ammo kuchlarni birlashtirish, hamkorlikni rivojlantirishdan har ikki tomon ham manfaatdor ekanini yaxshi anglaydi. Shu bois, tomonlar aloqalarni kuchaytirish, raqamli transformatsiya, transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik va "yashil o'sish" loyihalarini amalga oshirish orqali "Global darvoza" tashabbusini to'liq ro'yogga chiqarishga intilmoqda.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoning raqamli transformatsiya borasidagi ulkan salohiyatidan o'zaro manfaatli hamkorlik va inklyuziv rivojlanish yo'lida umumiy foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday tashqari, jahon bozorlariga chiqish, global integratsiya va hamkorlik jarayonida faol ishtirok etish uchun transport yo'nalishlarini

diversifikatsiya qilish mintaqamizning barcha mamlakatlari uchun birdek dolzarb vazifadir. Bu borada Y'ning qator tashabbuslari eng maqbul va samarali tranzit hamda logistika infratuzilmalarini yaratishga xizmat qilishiga aminmiz.

Birgina Transkaspium multimodal yo'nalishini rivojlantirish orqali Yevropa qit'asining Osiyo bilan savdo-iqtisodiy hamkorligini yanada chuqurlashtirish, Markaziy Osiyo mamlakatlarining esa tashqi bozorlarga eng qulay transport yo'nlari vositasida chiqishiga erishish mumkin. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi "yashil" rivojlanish bo'yicha asosiy hamkorimiz hisoblanadi.

Yevropa davlatlari zamonaviy texnologiyalarni yaratishda ancha ildamlagan. Faol raqamlashtirish jarayoni kechayotgan bugungi davrda esa bunday texnologiyalarga ehtiyoj

ortib boryapti. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham energiyani samarali sarflaydigan va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, "aqlil" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalari imkoniyatlarini to'liq ishga solish harakati boshlangan. Bu borada esa Yevropa davlatlarining eng ilg'or va zamonaviy tajribasiga tayanamiz.

Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, inklyuziv "yashil o'sish"ga o'tish, suvdan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bundan keyin ham ko'p tomonlama hamkorligimizning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi. Shu ma'noda, atrof-muhit va suv resurslari bo'yicha kelgusi yili Rim shahrida bo'lib o'tadigan Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo xalqaro konferensiyasi ushbu yo'nalishda aniq amaliy natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hech bir mamlakat yakka holda rivojlanish olmagani kabi insoniyat uchun umumiy bo'lgan muammolarni ham yolg'iz bartaraf eta olmaydi. Ayniqsa, global iqtisodiy inqiroz, iqlim o'zgarishlari, suv resurslari tanqisligi, mintaqaviy kelishmovchiliklar va turli ommaviy kasalliklarning tarqalishi kabi salbiy holatlar dunyo oilimlari va ekspertlarini tashvishga solayotgan bir davrda o'zaro hamjihatlik samarali yechimlar topishga yo'l ochadi.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlarini birlashtirayotgan masalalar ham nafaqat davlatlar, balki sayyoramiz rivoji, umumiy uyimiz bo'lgan ona zamin tinchligi, insoniyat farovonligini ta'minlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

TARAQQIYOT YO‘LI



Farangiz AVAZBEKOVA, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonda siyosiy, davlat boshqaruvi va huquqiy sohalarining izchil, bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi natijasida eng yuksak demokratik talablarga javob beradigan saylov tizimi yaratildi.

Bunda saylov qonunchiligi xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillar, nufuzli xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va xalq fikri asosida takomiliga yetkazildi hamda mamlakatdagi demokratik islohotlar bilan uyg'unlashtirildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning XXII bobida saylov tizimiga oid asosiy qoidalar mustahkamlandi. Xususan, Bosh qonunimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Endilikda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmasligi konstitutsion norma sifatida belgilandi.

Konstitutsiyaning takomillashtirilishi asosida saylov jarayonlari bilan bog'liq bunday normalar mustahkamlanishi saylovning qonuniyligi, ochiqlik va oshkorlik tamoyillari asosida, jahonda umume'tirof etilgan demokratik standartlarga mos holda o'tishini, fuqarolarning saylov huquqi kafolatlarini hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlashga xizmat qiladi.

KUN MAVZUSI



Bobur BEKMURODOV, "Yuksalish" umummilliy harakati raisi

Har qanday mamlakatning barqarorligi uchun davlat va jamiyatning birdamligi, undagi siyosiy jarayonlarning naqadar ochiq va shaffof bo'lishi ahamiyatlidir. Biz nima uchun davlat boshqaruvida demokratik boshqaruv shakliga intilamiz? Biz orzu qilgan jamiyatga demokratiya orqali erisha olamizmi? Bu kabi savollarni ko'pchiligimiz o'zimizga berib ko'rganimiz va hozircha

Milliy saylov qonunchiligi kodifikatsiyalashtirilishining ahamiyati

Milliy saylov qonunchiligidamizning o'ziga xos jihati saylov jarayonlariga oid barcha normalarning kodifikatsiyalashtirilishidir. Xususan, Saylov kodeksi saylov huquqiga oid ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va huquqiy kafolatlar tizimini mustahkamlash bilan birga fuqarolarning saylov huquqini amalga oshirishni ta'minlovchi shart-sharoit va mexanizmlarni yaratishga oid huquqiy normalarni o'zida aks ettiradi.

Saylov qonunchiligi kodeks shakliga keltirilgunga qadar mazkur tizimda bir vaqtning o'zida beshta qonun parallel ravishda amal qilardi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarining ayrim normalari bir-biriga zid bo'lib, turli huquqiy kollyziya mavjud edi.

Mazkur holat esa saylov komissiyalari, ayniqsa, chekka joylardagi uchastka saylov komissiyalari a'zolari muayyan vaziyatda qanday yo'l tutishni bilmay, turli noaniqliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Kodeks qabul qilingach, milliy saylov qonunchiligi va amaliyotida ayrim bo'shliqlar va yechimini kutayotgan muammolar hamda turli noaniqlik va ovoragarchiliklar barham topganini nafaqat milliy saylov amaliyotchilari, balki xalqaro ekspertlar ham keng e'tirof etdi.

Milliy saylov tizimimiz umumjahon talablari va tendensiyalariga muvofiqlashtirildi. Kodeks kuchga kiritilishi munosabati bilan o'ttizga yaqin qonun bekor qilindi hamda qonunosti hujjatlarga

keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek, ba'zi hujjatlar o'z kuchini yo'qotdi. Xalqaro saylov standartlariga mos, puxta, ixcham va yaxlit shaklda qabul qilingan bunday mukammal saylov kodeksidan shu paytgacha milliy saylov qonunchiligimizda bo'lmagan o'nlab yangi norma va qoida joy oldi, amaldagi ayrim byurokratik tartib-qoidalar bekor qilindi.

Har bir saylovchi diqqat-e'tiborda

Mamlakatimizda davlat siyosatining o'ziga xos jihati O'zbekiston fuqarolarining qayrda yashab turganidan qat'i nazar, davlat himoyasida bo'lishi, huquq

va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilganidir. Aynan 2019-yildagi saylovda xorijda istiqomat qilib turgan saylov yoshidagi barcha vatandoshlarimiz uchun ilk bor ovoz berish imkoniyati yaratilgani ana shunday yuksak e'tiborning amaldagi ifodasi bo'ldi.

Avvallari bunday siyosiy tadbirlarda faqat konsullik vakolatxonalaridan rasman ro'yxatdan o'tgan o'zbekistonliklar qatnashgan.

Saylov kodeksida ilk bor chet davlatlarda yashab turgan O'zbekiston fuqarolarini diplomatik vakolatxonalarning konsullik hisobida bo'lishi yoki bo'lmagligidan qat'i nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritish tartibi, xorijiy mamlakatlarda saylovchilar



XALQARO SAYLOV STANDARTLARIGA MOS, PUXTA, IXCHAM VA YAXLIT SHAKLDA QABUL QILINGAN BUNDAY MUKAMMAL SAYLOV KODEKSIDAN SHU PAYTGACHA MILLIY SAYLOV QONUNCHILIGIMIZDA BO'LMAGAN O'NLAB YANGI NORMA VA QOIDA JOY OLDI, AMALDAGI AYRIM BYUROKRATIK TARTIB-QOIDALAR BEKOR QILINDI.

yashayotgan yoki ishlayotgan joyida ko'chma qutilar orqali ovoz berishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Vatandoshlarimiz uchun chet eldagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari huzurida tashkil etiladigan saylov uchastkalarining saylovchilarni ro'yxatga kiritish bo'yicha elektron murojaat qilish imkonini beruvchi saylov.mfa.uz kommunikatsion tizimi ishga tushirildi.

Saylov jarayonida suiiste'molchilik, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida qonunchilikda "uchastka saylov komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi bitta tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin emas"ligi alohida qayd etilgan.

Biroq shifoxonalar, dam olish uylari, harbiy qismlar, chet ellardagi diplomatik vakolatxonalar kabi muassasalarda, ularning qat'iy ichki tartib-qoidalari talablaridan kelib chiqib, saylov uchastkasi a'zolarini bunday tartibda tuzish qiyinligi amaliyotda muammolarni keltirib chiqarar edi.

Shu sababli, kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, mazkur qoida endilikda chet davlatlardagi diplomatik muassasalar huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriylarda va dam olish uylarida, shifoxonalarda hamda boshqa stasionar davolash muassasalarida va ozodlikdan mahrum qilish joylarida tashkil qilingan saylov uchastkalariga tatbiq qilinmaydi.

VATANDOSHLARIMIZ UCHUN CHET ELDAGI DIPLOMATIK VAKOLATXONALAR VA KONSULLIK MUASSASALARI HUZURIDA TASHKIL ETILADIGAN SAYLOV UCHASTKALARINING SAYLOVCHILARNI RO'YXATGA KIRITISH BO'YICHA ELEKTRON MUHOJAAT QILISH IMKONINI BERUVCHI SAYLOV.MFA.UZ KOMMUNIKATSION TIZIMI ISHGA TUSHIRILDI.

Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati

Saylovning ko'ppartiyaviylik va muqobilik, oshkorlik va transparentlik tamoyillari asosida, demokratik saylov talablariga muvofiq o'tishni ta'minlash zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda jarayonni raqamlashtirish masalalariga bog'liq.

Jumladan, Saylov kodeksida respublika miqyosida saylovchilarning ro'yxati elektron tarzda tuzilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur ro'yxatni tuzish, unga o'zgartirish kiritish va yangilab turish, saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi yordamida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, saylovchilarning yagona elektron ro'yxati vakolatli davlat organlarining axborot bazalariga muvofiq saylovchi fuqarolar, ularning doimiy va vaqtinchalik yashash manzillari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan davlat axborot resursi hisoblanadi.

Aynan saylovchilarning yagona elektron ro'yxati va Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini yanada takomillashtirish orqali fuqarolarning doimiy va vaqtinchalik yashash joylari, hududlar, ko'chalar, uylar va xonadonlarning nomlari hamda raqamlarining elektron shaklida aniqlash va belgilanishiga imkon yaratiladi.

Bu shunchaki saylovchilar haqidagi ma'lumotlar bazasi emas, balki saylovning tenglik prinsiplari ta'minlashga xizmat qiladigan vosita hamdir. Chunki mazkur axborot tizimi va saylovchilarning yagona elektron ro'yxati orqali fuqarolarning faqat bir marotaba ovoz berganini nazoratga olish imkoniyati mavjud bo'ladi.



inobatga olingani jarayonlarda siyosiy huquqqa ega har bir shaxsning o'z saylov huquqlarini hech qanday to'sqinlik amalga oshirishi, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokining eng muhim kafolatlaridan biridir.

Ayniqsa, yuqori migratsiya sharoitida saylovchini tegishli saylov okrugiiga birlashtirish va "bir saylovchi — bir ovoz" qoidasini amalda qo'llashni ta'minlovchi tizimni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tartibotga ko'ra, saylovchilarning yagona elektron ro'yxati barcha saylov uchastkalari kesimida tegishli uchastka komissiyalariga onlayn tarzda yetkaziladi. Shunday bo'lsa-da, har bir uchastka saylov komissiyasi uchastka hududida yashovchi aholini uyuma-uy aylanib chiqish yo'li bilan ro'yxatga aniqlik kiritadi.

Qonunga muvofiq, saylov kuni qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan paytda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan fuqarolarning familiyasi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

Bunday tizim o'rnatilmasidan avval bir saylovchining ham doimiy ro'yxatda, ham vaqtincha ro'yxatda turgan joyidan turib ovoz berishi natijasida fuqarolarning teng saylov huquqi, ya'ni saylovda bitta ovozga egaligi tamoyilining buzilish holatlari kuzatilib boshladi.

Shu asosda saylovchilarning yagona elektron ro'yxati fuqarolarning teng saylov huquqi prinsiplari ro'yobga chiqarib fuqarolarimizga davlat boshqaruvida saylov orqali ishtirok etishdek siyosiy huquqlaridan foydalanishda aniqlik va qulaylikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning zamonaviy saylov qonunchiligi umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga, erkin va adolatli saylov mezonlariga muvofiqdir. Shuningdek, mamlakatimiz saylov tizimi huquqiy asoslari milliy qadriyatlarimizga tayanilgan holda xalqaro tamoyillar, ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti o'rganish hamda mustaqillik yillarida mamlakatimizda o'tkazilgan saylovlar tajribasining tahlili natijasida tadriziy takomillashtirib borilmoqda.

SAYLOVLAR JAMIYATDA YANGI KUCH VA G'OYALARNI VUJUDGA KELTIRADI

So'nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar, kuch markazlarining dunyo siyosiy xaritasini o'zgartirishga urinishlari turli tahlil va vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Sir emaski, ayrim mojarolar mamlakatimiz chegaralariga ham yetib keldi. O'zbekistonning yaqin hamkor davlatlari o'rtasida ham turli darajadagi ziddiyatlar kuzatilmog'ay.

XXI asrda bunday voqe'larga guvoh bo'lish hech kimning xayoliga kelmagan edi. Biroq biz mavjud realikni his etishimiz lozim. Bunday sharoitda mamlakatimizning suvereniteti, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini saqlash masalasi har qachongidan ham muhim vazifaga aylandi.

Uinston Cherchillning o'sha mashhur javobi dolzarbligini yo'qotmadi. Ya'ni demokratiya boshqaruvi juda yomon shaklidir, lekin biz hozircha undan yaxshiroq'ini o'ylab topmadik.

Darhaqiqat, demokratiya o'z ma'nosiga ko'ra xalq hokimiyatidir. Mamlakat taraqqiyoti uchun qarorlar qabul qilishda jamiyatning ishtiroki muhim omillardan biri hisoblanadi. Demokratiyaning ham asosiy belgilaridan biri xalqning davlat va jamiyat boshqaruvidagi to'g'ridan-to'g'ri ishtirokidir. So'nggi yillarda so'z

O'zbekiston dunyoviy rivojlanish yo'lidan borishi biz uchun konseptual ahamiyat kasb etadi. O'z o'rnida mazkur o'zgarish jahon hamjamiyati, O'zbekistonning tashqi hamkorlari uchun o'ziga xos signal vazifasini o'tagan ham rost. Shuningdek, parlament vakolatlarining oshirilishi va mahalliy boshqaruvda hokimlarning vakolatini cheklashga qaratilgan normalar ham yaqin kelajakda boshqaruvi ixcham va professional shakllantirish hamda o'zini-ozini rivojlantiruvchi tizim yaratishga mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Aslini olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan har bir o'zgarish shu kunga qadar amalga oshirilgan demokratik islohotlarning ko'zguisidir. Shu nuqtayi nazardan, uning to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan hujjatga aylantirilgani ham bejiz emas. Endilikda asosiy vazifa ushbu qoidalarning to'laqonli ishlovini ta'minlashdan iborat. Yangi kun tartibiga muvofiq, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatidan foydalanган

holda, navbatdan tashqari prezidentlik saylovlari start berdi. Hali amalda bo'lgan 3,5 yillik muddatdan voz kechganini demokratik islohotlarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Bugun mavjud realikdan kelib chiqib mamlakatimiz uchun yangi kun tartibini, O'zbekistonning kelgusi yillardagi rivojlanish yo'lini belgilashda ushbu saylovning ahamiyati katta.

Birinchiidan, saylov jarayoni rivojlanishning eng muhim yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratadi.

Ikkinchiidan, jamiyatimizda siyosiy muhofakamar faollashadi, natijada xalqimizning mamlakatning yangi hukumatdan kutayotgan talabari o'rtaga chiqadi. Bu esa mavjud siyosatga qo'shimcha chizgilar, yangiliklar kiritishni taqozo etadi.

Uchinchiidan, saylov jarayonlari hokimiyatning legitimligini belgilaydi va jamiyatda islohotlarga bo'lgan ishonchni baholash imkoniyatini oshiradi. Aynan

mana shu omillar sabab navbatdagi islohotlarda ustuvor jihatlari aniqlanadi.

Shunday ekan, Prezidentlik saylovi mamlakatimiz tarixiy rivojlanish yo'lidagi muhim pallaga aylandi. Bugun xalqimiz o'z irodasini namoyish etish arafasida turibdi va kelajagi yo'lidagi tarixiy tanlovni amalga oshiradi.

Bu davrda vatandoshlarimiz passiv kuzatuvchi roli bilan cheklanib qolmasdan, saylovlarda faol ishtirok etishi, o'z mamlakatining barqaror, tinch va farovon kelajagidan manfaatdor bo'lishi kerak.

Demak, O'zbekistonda Prezident saylovi nafaqat mamlakatning yangi rahbarini saylash jarayoni, balki siyosiy barqarorlik va demokratik taraqqiyot yo'lidagi muhim bosqichdir. Zero, saylovlar jamiyatimizda yangi kuch va yangi g'oyalarni vujudga keltiradi, O'zbekiston ravnaqiga hissa qo'shadi, demokratik rivojlanish an'analarini davom ettiradi.

TURIZM

TARIX TILSIMLARI TOMON talpinayotgan qadamlar

MAGNITLI TOG'NING SIRI NIMADA YOXUD BITTA DO'PPI NECHA KUNDA TAYYOR BO'LADI?

Prezidentimizning yaqinda turizm salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida bu yil Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish yili bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilishda "O'zbekiston tashrif qog'ozini" ishlab chiqib, turizm brendini yangilash, xalqaro telekanallar va internet platformalarida yurtimiz haqidagi reklama roliklarini ko'paytirish muhimligi qayd etildi.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizdagi 11 ta oliy ta'lim muassasasi 31 ta tuman hamda 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar majmuini yaratish va ko'maklashishga birkirildi.

Jumladan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 60 talabasi amaliyot rahbarlari boshchiligidan Rishton, Chust, Yangiqo'rg'on va Boysun tumanlarida turizm amaliyoti o'tadi. Bu orqali nafaqat turizm rivojiga hissa qo'shish, balki boy bilimiga ega bo'lish imkonligini anglab yetishgani yoshlarning hayajonga to'la taassurotlaridan shundoqqina ko'rinib turibdi. E'tiboringizga havola etilayotgan kichik tadqiqotlar bilan tanishish asnosida siz ham buni his qilasis, degan umiddamiz.



Tilsimlar maskani

Boysungacha kelishingiz bilan tog'ning toza havosi dimoqqa uriladi. Tumanning turizm salohiyatini o'rganishga kirishar ekanmiz, "Boysun so'zining ma'nosi nima?", degan savol tug'ildi. Sayfullo Tursunovning "Boysun" kitobida yozilishicha, Chig'atoy ulusiga mansub ko'chmanchi turk qavmlari unga "Boysun" deb nom bergan va "Boysun" atamasining etimologiyasi qadimgi turkiy tilga oid bo'lib, "boy" va "sin" dan olingan hamda "ulug' tog'" yoxud "katta tog'" ma'nolarini anglatgan.

asrlar davomida insonlarni o'ziga chorlab kelmoqda. "Omonxona" atamasini ikki so'z birkimasidan tashkil topgan. "Omon" – sog'-salomat, tinch ma'nolarini bildirsa, "xona" — joy, o'rin, manzil, maskanni anglatadi. Omonxona bulog'idan toza suv ichganlar doimo omon (sog') bo'lishadi! Zer, bu shifobaxsh suv ichki a'zolar faoliyatiga ham juda yaxshi ta'sir qiladi.

Qadimgi turkiy qavmlar orasida toqqa sig'inuvchilar ham bo'lib, tog'lar muqaddas sanalgan. Mahalliy aholi orasida og'izdan og'izga ko'chib yuruvchi rivoyatlarga ko'ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning badavlat kishilari yashagan bo'lib, "Boysun" atamasini "boylar qishlog'i" ma'nosini anglatadi.

Maktab darsliklarida Teshiktosh g'oridan 9 yoshli neandertal bola va echki sho'xlar, yovvoyi ot va leopard qoldiqlari topilgan haqida o'qiganmiz. Boysunda joylashgan Teshiktosh g'ori dengiz sathidan 1550 metr balandlikda bo'lib, mashaqqat bilan unga chiqishga erishganlar darsliklarda yozilgan topilmar qazilgan chuqurlarni ko'rardilar. "Boysun bahori" — Boysunning dovru'g'ini dunyoga tanitgan festival o'tkaziladigan bahor oylarida tog'li makon, ayniqsa, betakror go'zallashib ketadi.

Ekspeditsiya chog'ida ko'p eshitganimiz — yerli aholining mehmondo'stlik fazilati bo'ldi. Surxondaryoliklarga xos udum — mehmonni go'sht bilan shtylash Boysunda ham amal qiladi. Turli go'shtli taomlar, ayniqsa, tandirda pishgan barra go'sht bu yerlarning "tashrif qog'ozini" hisoblanadi. Tandır go'shtidan quvvat olgan sayyohlar birin-кетин muqaddas qadamjolariga yo'l oladi.

Festivalda ko'plab hunarmandlar qatori kashachilar ham milliy kashta va jandalarni namoyish qilishadi. Gaza mahallalik Feruza Xoliqova 15 yoshidan kashtachilik sirlarini o'rgangan. Bugun o'zi yuzdan ziyod shogirdga ustozlik qiladi. Mahallasida ustoz-shogird an'anasi davom ettirish maqsadida "Feruza" hunarmandlik o'quv markazini ochgan. Feruza opa va shogirdlari tayyorlagan qo'l ishi namunalari ko'rib, ko'zingiz quvnaydi.

Bibishirin maqbarasi Boysundagi muqaddas go'shalaridan bo'lib, balandligi 8 metr. Maqbara maxsus g'isht va ganch bilan bezatilgan. Old qismi peshayvonli, gumbazsimon yopilgan. Ziyoratgoh yonida Domla Ko'lobiyga farzandlari tomonidan maqbara qurilgan. Shuningdek, Boysundagi Xo'ja Qo'chqor ota, Kamari Aziz ziyoratgohi, Hazrati Sulton Valiy Balogardon va Xo'jamayxona ziyoratgohlari ham ziyorat turizmi rivojlangan go'shalar.

Boysunga kelgan sayyohlar Padang qishlog'ining mo'jizasi ham kashf etadilar.



Qishloqdan 8 kilometr narida joylashgan magnitli tog' haqida eshitganmisiz? Olimlarning turli muhokamalarga sabab bo'lib kelayotgan bu g'ayritabiyy joi mahalliy aholi magnitli joy, deb ataydi. Bir qaraganda, balandlikka chiqilayotgandek ko'rinadigan bu qiyaqlikda tezlik uzatmasi neytral holatga qo'yilsa va tormoz bosilmasa, balandlikdan tushib kelayotgan mashina yana orqaga ketadi. Yo'lga suv quyilsa, u ham tepaga qarab oqadi. Tabiatning bu mo'jizasidan hayratlanmaslikning iloji yo'q.

— Darslarimiz boshlanganiga 2 yil bo'ldi. 1 yilda 4-5 ta kurs tashkil qilindiki. 2019-yilda Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan birinchi xalqaro hunarmandlik festivalida o'lchami 110 kvadrat metr bo'lgan qunyodagi eng katta so'znanamiz bilan qatnashdik. O'shanda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy hunarmandlikni rivojlantirish nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdik. So'znanamiz ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, dovru'g'i Yaponiyagacha yetib boribdi. Shundan keyin yapon ayollari biz bilan bog'lanib, aynan shu kashtachilikni o'rgatishimizni so'rashti. Chunki bu so'znanalardagi bezaklar boshqa so'znanalardagidan butunlay boshqacha. Hozir, mana, yapon ayollariga kashtachilik sirlarini masofadan bo'lsa-da, o'rgatayapmiz, — deydi Nilufar Jo'rayeva.

Magnitli tog'dan qaytishda Padangda mahalliy va xorijiy sayyohlarga yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishish mumkin. Zamonaviy sharoitlar, milliyligimizni namoyon etadigan o'tovlar ham sayyohlarning maroqliq hordiq chiqarishiga xizmat qilmoqda. Hozirgacha agro, eko va ziyorat turizmi shaydolari uchun 3 ta zamonaviy kottej, 3 ta o'tov va yengil konstruksiyali konteyner tipidagi yotoqjoy, yozgi hovuz, go'zal tabiat qo'nyida didan shuhbat qurib, dam olish uchun tabiiy supalar, tadbirlarga mo'ljallangan sahna barpo etilgan.

Ekspeditsiya uchun bir hafta ajratilgan edi. Ammo Boysunni kashf etishga oylar ham kamlik qiladi. Bejiz "Boysun" — tilsimotlar maskani" deyilmas ekan.

Boysungacha sayyohlarni eng ko'p jalb qiladigan yana bir makon — Omonxona. Surxondaryolik yoshi ulug'lar yoshlarga turli gazli suv o'rniga Omonxona suvidan ichishni maslahat berishadi. Yetti yuz yillik tarixga ega Omonxona qishlog'i, undagi shifobaxsh buloq, tabiiy muzxona hisoblangan go'r

Salohiddin SUYUNOV,
TDSHU TALABASI

Talabalarning kichik tadqiqotlari haqidagi maqolalarini tahrir qilish ekanmiz, to'g'risi, o'zbek turizmining ertasi uchun o'z vaqtida juda kerakli faoliyatga kirishilganini anglatadi. Birinchi qadamlarning o'zidayoq yoshlardan kutilayotgan ulkan natijalarning uchqunlari bordek.

O'ylaymizki, bu boradagi samaradorlik boshqa mas'ul oliygohlarda ham yo'lga qo'yilishi va muntazam davom etishi, albatta, turizm salohiyatimiz rivojiga xizmat qiladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kafedra mudiri Nilufar XO'JAYEVA tayyorladi.

Namanganga yo'lingiz tushsa, Nanayni ko'rmay qaytmang!

Markaziy Osiyoda I-IV asrlarda vujudga kelgan Kushon davlati tez rivojlandi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Namangandagi hozirgi Yangiqo'rg'on tumani hududi ham Kushon saltanati tarkibida bo'lgan.



Yangiqo'rg'on tumani nafaqat Namangan, balki Farg'ona vodiysining eng so'lim go'shalaridan. Tumandagi tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlar, betakror tabiat kishini ohanrabodek o'ziga tortadi.

Yangiqo'rg'on ziyoratgohlarida o'zgaracha go'zallik va sokinlik bor. Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz "Abdulloh bir urug'i" ziyoratgohining paydo bo'lishi XIV-XV asrlarga to'g'ri keladi. Rivoyatda aytilishicha, islom dinini targ'ib qilish uchun kelgan "Abdulloh bir urug'i" jangchilari yov bilan jangda chekinib, shu yerdagi adirlik ustiga

chiqib, "yoril g'or", deb xitob qilganmish. Shunda ular turgan adirlik poyida yer yorilib, g'or paydo bo'lgan, Abdulloh bir urug'i shu g'orga kirib, g'oyib bo'lgan ekan. Hozir bu adirlik ostidan chiqayotgan buloq atrofi ziyoratgohga aylanib, ziyoratchilar qadami

Boboi Xandon jome masjidi, Boboi Xandon maqbarasi, Bog'iston, Gaiston, G'aznon, Qandbuloq, Guldor masjidi, Darvozako'l va hokazolar shular jumlasidan.

Ekspeditsiya Yangiqo'rg'on tumanining Nanay qishlog'ida ham bo'ldi. Nanay tarixi XII-XIII asrlarga borib taqaladi. Qishloq hududidan topilgan qadimgi sopol idishlar, xum va ko'zalar, jang qurollari hamda ko'hna qabr toshlari qishloqning qadim tarixidan hikoya qiladi.

Qadimgi mesopotamiyaliklar va bugungi yurtimiz hududida yashagan zardushtiylar unumdorlik ilohini Nanay deb atashgan. Shu bois bo'lsa kerak, bu qadimgi nom o'zgarib chiqqan. Bu yerning tabiati so'lim va bahavo, luprog'ini serhosil. Tarix va hozirgi zamon hamnafas, inson va tabiat o'rtasida chambarchash bog'liqlik borday. Qisqasi, Nanayda o'zingizni tabiatning bir parchasi sifatida his etasis. Yurtimiz sayyohlariga "Namanganga yo'lingiz tushsa, Nanayni ko'rmay qaytmang", degan bo'lar edik.

Shahnozabonu O'TKIROVA,
TDSHU talabasi

Kiyik shoxli, qo'y qovurg'ali pichoqlar vatani

Ma'lumotlarga ko'ra, Chust qadimdan xalq tilida Tus, Tuss, Tuz va keyinchalik Chust deb atalgan. Chust so'zi tez, o'tkir, tekis, ravon, silliq degan ma'nolarni bildiradi. Chust Olmos-Varzik tog' oldi tekisliklarida, Rezaksuy va G'ovasoy oraliqida, Chustsoy atrofiga, dengiz sathidan 1200 metr balandda, viloyat markazi Namangandan 40 kilometr uzoqda joylashgan. Qadimda mazkur hududdan Buyuk ipak yo'li o'tgan bo'lib, vodiyni eng katta bozorlaridan biri joylashgan.

Hozirgi kunda ham Toshkent — O'sh magistral yo'li o'tgan Chust tumanining markazi va atrofidagi qishloqlarda turli davrlarga oid ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan arxeologik obyektlar va me'moriy yodgorliklar mavjud. Hududda azaldan hunarmandlik rivojlangan, unda tikuvchilik, to'quvchilik, ko'nhilik, kosiblik va boshqa qadimgi hunarlar hozirgi kungacha sayqal topib kelmoqda. 4 ming yillik tarixga ega Chust pichoq'iyu 2 ming yillik tarixli Chust do'ppisi haqiqiy brendga aylanib ulgurvan va sayyohlar uchun eng yaxshi esdalik sovg'a hisoblanadi.

Hududga kelgan har qanday inson uning qadimiyligiga guvoh bo'ladi. Shahardagi tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlar, shuningdek, takrorlanmas tabiat kishini ohanrabodek o'ziga chorlaydi.

Mezbonlar mehmonlarni, avvalo, Mavlono Lutfulloh nomidagi madaniyat va istirohat bog'iga taklif qilishadi. Sayyohlar, mahalliy aholi Mavlono Lutfulloh hazratlari qabriini ziyorat qiladi va Chustning mashhur oshidan yemay ketmaydi. Zero, bu oshning mazasini bilgan odam yana yegisi kelaveradi.

Bog' shifobaxsh buloqlari, so'limligi bilan ham mashhur. Mart-oktabr oylanida bu yer ziyoratchi va sayyohlarning sevimli maskaniga aylanadi. Choyxonalaridagi so'nilar mehmonlar bilan to'ladi. 22 ta choyxonaning har birida 20 ta, ba'zilarida 10 tadan qozon o'rnatilib, har bir qozonda kuniga eng kamida 3-4-martadan osh damlanadi.

Yana bir muqaddas qadamjo — Ko'kto'ni ota ziyoratgohiga ham ko'plab ziyoratchilar keladi. Ko'kto'ni ota Jizzax tomonlarida tug'ilgan bo'lib, Chustda dafn etilgan aytiladi. Rivoyatlarga ko'ra, Ko'kto'ni ota vazir Sohib Zamonboyning o'g'li, tariqat peshvosi (pir) Muhammad Zamonboy bo'lib, u, ba'zi taxminlarga ko'ra, 109 yil, ba'zilariga ko'ra esa, 120 yil umr ko'rgan va 1267-yilda vafot etgan.

Ko'kto'ni ota, ya'ni Muhammad Zamonboy Xoja Ahmad Yassaviy bilan hamsuhbat bo'lgan, hatto uning shogirdi sanalgan, degan taxminlar ham bor.

Xo'jabod mahallasi boylaridan biri Vorisboy ko'kyo'tal kasalidan shu zoti sharifga ixlos qilib sog'aygani iddaosida uning qabri oldida 1888-yilda masjid qurdirgan.

Sobiq ittifoq davrida masjid hovlisining asosiy qismidan sil kasalliklari dispanseri va poliklinika sifatida foydalanilgan. Hozirgi kunda hashar yo'li bilan qayta ta'mirlangan.

Guruhimiz bilan pichoqchi usta Rahimjon Ubaydullayev xonadonida bo'ldik. Rahimjon aka ustachilik bilan shug'ullanib kelayotgan yettinchi avlod vakili ekan. Ustaxonasi uyida bo'lgani uchun mehmonlar pichoq yasash jarayonini ko'rishlari mumkin. Bir dona pichoq qanchada tayyor bo'ladi, degan savolimizga Rahimjon aka jilmayganicha, "biz birvarakayiga 14-15 ta pichoq tayyorlay boshlaymiz. Har bir pichoq 76 ta jarayondan o'tib, 2 haftada tayyor bo'ladi", deya javob berdi.

Ustaxonada kiyik shoxidan, qo'y qovurg'asidan tayyorlangan va yana shunga o'xshash ajoyib g'aroyib pichoqlarni ko'rdik. Ustaning o'g'illari pichoqchilik bilan shug'ullanayotgan sakkizinchi avlod vakillaridir.

Chust do'ppisini tikayotgan hunarmandlar xonadonida bo'lmagan esak-da, har bir chustlik ayol bu do'ppini o'z qo'li bilan tikib, tushur o'strog'i, otasi, aka-ukalariga kiyindir qo'yishi kerakligini bilib oldik.

Hunarmand ayollarning ma'lumot berishicha, bitta do'ppi o'rtacha 7-14 kunda tayyor bo'ladi. Ular do'ppining andijon nusxa, namangannusxa va hatto o'ris nusxa (Rossiyadan ko'chib kelgan Valya opa yaratgan uslubda) kabi turli, kuyovdo'ppi, bolalar do'ppilari kabi 10 dan ortiq turini tikishadi.

Jayrona NAMOZOVA,
TDSHU talabasi

birgamiz. Sopol buyumlarimizning dunyoga chiqayotgani, sayyohlar qiziqish bilan ishlarimizni ko'rish uchun kelayotgani bizga quvonch bag'ishlaydi, albatta. Bizimiz turizm bilan uzviy bog'liq. Sayyohlar bizdan sotib olgan sovg'alarini boshqalarga ham ko'rsatishadi. Albatta, ularda ham mahsulotlarimizga qiziqish ortadi. Qolaversa, xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda qatnashamiz. Umuman, turizm rivojlanishiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shishga harakat qilyapmiz, — deydi Shokir Ahmadjonov.

Amaliyotimiz davomida nafaqat Rishtonning turizm salohiyati, balki turizmni rivojlantirish uchun zarur jihatlari bilan ham qiziqdik. Masalan, kulolik mahallalari, ziyoratgoh va agroturizm mavjud bo'lgan hududlardagi ijtimoiy-maishiy infratuzilmalar (mehmonxona, hostel va uy mehmonxonalar, transport, kafe, restoran va choyxonalar, do'kon va bozorlar, bank va bankomatlar, yo'l, tez yordam xizmati va shifoxonalar...) holatini o'rganib, tuzumga tavsiyalar kiritishga harakat qildik.

Rishtonga safarimizdan xalosa shu bo'ldiki, tuman sopol va chinni buyumlari, qantak o'rikleri, palovi va ziyoratgohlari bilan "Rishton brendi"ni yaratmoqda.

Sevara BAHODIROVA,
TDSHU talabasi

Rishton brendga aylana oldi(mi)?

Rishton — Buyuk ipak yo'lida joylashgan Farg'ona vodiysining qadimgi shaharlaridan biri. Rishtonliklar samimiylik, odamshavandligi bilan yuraginingizga kiradi. Qisqa aytganda, bu hudud hunarni san'at darajasiga chiqara olgan tani insonlar yurti.

Rishton nafaqat kulollari, balki ziyoratgohlari, ulug' qadamjolari bilan ham mashhur.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili Xo'ja Rushnoini ziyoratgohiga o'rtacha 120 ming, Xo'jalig'orga 100 ming, Sohbi Hidoyaga 50 ming, Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohiga 25 ming ziyoratchi keladi. Xususan, musulmon davlatlardan keluvchi sayyohlar va ziyoratchilar safi yil sayin ortib bormoqda.

Rishton nomini Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy kabi adib-u allomalr asarlarida tilga olgan. Burhoniddin Marg'inoniy, Mirzaabdulla Boqiy singari ilm ahllari, ko'plab fan arboblari, taniqli shaxslarga beshik bo'lgan bu tumanda bugun ulkan bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda, yangi korxonalar ish boshlagan, zamonaviy bino-inshootlar qad rostlagan.

Tumanda 71 ta mahalla fuqarolar yig'ini bor. Qishloq xo'jaligi bog'dorchilik, uzumchilikka ixtisoslashgan. Rishton

qantak o'rikleri, Cho'ng'ara devzirasi bilan mashhur. Turli sohadagi yuzdan ortiq sanoat korxonasi ishlab turibdi.

Amaliyotimiz davomida 12 ta kulolik mahallasi va qator muqaddas ziyoratgohlar bilan tanishdik. Haqiqiy qo'l mehnati sehnini his qila oladigan muhitda — Rishton xalqaro kulolik markazida 20 ta kulol oilasi bilan bir hafta davomida yashab, oz bo'lsa-da, kulolik sirlarini o'rgandik.

Jumladan, usta kulol Shokir Ahmadjonovning "Mingboshi keramik"

oilaviy korxonasi bilan tanishib, Rishtonning ishbilamon insonlaridan yana birini o'zimiz uchun kashf qildik. 33 yoshli Shokir usta boshchiligidagi korxonada bugungi kunda AQSH, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston, Kanada, Latviya, Litva, Estoniya, Turkiya kabi davlatlarga sopol buyumlar eksport qiladi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, 102 nafar doimiy ishchi va 3000 dan ortiq kasanachini ish bilan ta'minlagan.

— Rishtonda tug'ilib o'sganimdan faxrlanaman. Bir umr shu hunar bilan



MEHR VA MURUVVAT

O'z uy-joyiga ega bo'lish har bir inson hayotida qanchalik muhim ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Xalqimiz uyi borning o'yi yo'q, deb bekorga aytmagan.

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Uyi borning o'yi yo'q

Yoxud qalbi yaralangan ona, bolaligi boy berilgan o'smir hikoyasi

O'z boshpanasi bo'lishi, ko'rkam va shinam xonadonlarda baxtli yashash — har bir insonning hayotidagi asosiy maqsadi. Shuning uchun umrimizning yarmini uy-joy qurishga sarf qilamiz. Shu ezgu maqsad yo'lida tinim bilmay ishlaymiz, yelamiz, yuguramiz. Ammo kishining uyi bo'la turib, yillar davomida ta'mirlashga, jihozlashga imkoni va iloji bo'lmay, faqirlikda mung'ayib yashashidan qiyini bo'lmasa kerak.

Chinozlik Hilola Ahrorova ikki bolasi bilan turmushidan ajralganidan so'ng ko'p yillar nochor hayoti, izdan chiqqan sog'lig'i va voyaga yetmagan farzandlari uchun yordam so'rab, yuqori tashkilotlarga qayta-qayta murojaat qildi. O'zi ishonib-ishonmay atrofdan madad va najot kutdi. Faqat joriy yilning may oyi o'rtalaridagina tumandagi ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlarning muammolarini aniqlash maqsadida o'g'il-qizlar bilan suhbat o'tkazib yurgan Birlik mahallasi yoshlar yetakchisi Sarvar Mirzayev Hilolaning o'g'li Azizbek ancha vaqtdan beri maktabga bormayotgani, onasi va akasi bilan hech qanday sharoiti bo'lmagan bir xonali uyda yashab kelayotgani, ro'zgorga qarashish uchun kunbaxsh ishlarda ishlayotganini aniqlaydi. Shundan so'ng vakolati doirasida mutasaddi rahbarlarga ma'lumot beradi.

Hech qancha vaqt o'tmay, necha yillardan buyon ta'mirlanmagan, to'kiyay deb turgan hovliga Chinoz tumani hokimi bir necha vakillar bilan kirib keladi. Oilaning og'ir sharoitini ko'rib, nega shu vaqtgacha mahalla yoki hokimlikka uy so'rab murojaat etmagani bilan qiziqadi. Hilola esa ko'p yillardan buyon qiynalib, xastalanib yashagani, ammo hech kim uning ahvoli, yashash tarzi bilan qiziqmagani, ko'mak so'rab borgan amaldorlarning eshiklari yuziga qattiq yopilganini yig'lab, o'kinch bilan aytib beradi.

Tuman hokimi "Opa, sizga yangi uy qurib beriladi. Davlatimiz rahbari boshchiligida har bir fuqaroning hayoti va sog'lig'iga javobgarmiz. Endi yig'lamang. Yaxshilikka va yaxshi odamlar borligiga ishonib", deydi va ro'zgorida asqotadigan bir necha kerakli jihozlar berib ketadi.

O'sha kunning ertasiyogay qurib necha quruvchi qum va shag'al olib kelib, ular yashayotgan uy yonidan yangi xonadon poydevorini quyib ketishadi. Ayni vaqtda tuman hokimligi tashabbusi bilan 4 xonali uyni qurilishi boshlab yuborilgan.

Muammolarga yechim topildi

Ha, so'nggi yillarda yurtimizda ko'p narsa o'zgardi, uysiz, ishsiz odamlar uyli, ishi bo'ldi. Yechimi yo'q muammolarga yechim topildi. Ba'zi mutasaddi rahbarlarning yolg'on hisobotlari-yu ma'lumotbozligiga chek qo'yildi. Buning natijasida odamlarning qalbidagi o'ziga va kelajakka ishonch mustahkamlanib borayotir. Aslida, bu dunyoda ishonchsiz yashash og'ir. Chunki ishonch odamlarni nafaqat biringa, balki yashayotgan hayotiga ham umidvor qilib bog'lab turadi, yashashga muhabbat uyg'otadi. Agar o'tgan yillar davomida Hilola madad so'rab borgan eshiklar uning yuziga yopilganida, yozgan arizalari qabulxonalarda qolib ketmaganida, lavozimini pesh qilgan ba'zi amaldorlar shu o'ziga ayol bilan yurakdan suhbatlashganda edi, bu oilaning

odamlarga va jamiyatga bo'lgan ishonchi yo'qolmasdi. Chunki qiyin vaziyatdagi kichik bir turki ham inson hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ming afsuski, bu oilaning ahvoli o'sha davrda hech kimni qiziqitirmadi...

"E, hayotda bundaylar kammi", deyishingiz mumkin...

Toshkent viloyati hokimligi axborot xizmati bergan xabar asosida ijodiy jamoamiz bilan qurilayotgan yangi uyni ko'rish va xonadon egalari quvonchiga sherik bo'lish uchun Chinoz tomon yo'l oldik. Shundoqqina yo'l yoqasida, devorlari ko'chib ketgan, juda xaroba ahvolda qiyshayibgina turgan darvozasiz hovliga kirib borar ekanmiz, bu yerda kimdir yashashiga, to'g'risi, ishonmadik. Yoshlar yetakchisi Sarvar va xonadon sobihasi Hilola tabassum bilan bizni qarshi oldi. Ayol bilan suhbatlashar ekanmiz, yashashga sharoiti, bezashga bisoti, foydalanishga biror jihozi bo'lmagan bu oilada sabr-qanoat va shukronalik rishtalari nechog'liq mustahkam ekaniga qoyil qoldik.

Negaki, suvoqlari ko'chib ketgan, g'aribgina uyda odamlar orasida yo'qolib ketayotgan oqibatni, ayol matonatini, farzandlik burchining cheksiz va beg'araz kuchini ko'rganday bo'ldik. Hilola va ikki



o'g'li hayot sinovlari oldida qanchalik ezilib qiynalmasin, boriga ham, yo'g'iga ham shukur qilib yashagan. Bu so'zlarimizni o'qib, "E, hayotda bundaylar kammi", deyishingiz mumkin.

Lekin kelinlik ostonasiga bir quchoq orzular bilan qadam qo'ygan bu ayolning va farzandlarining boshidan o'tkazgan kechinmalari to'kin hayotdan doimo nolib yuradigan ba'zilar uchun ibrat bo'la oladi. Yoki oiladagi ba'zi mayda-chuyda gaplar, qaynonaning bir-ikki og'iz dashnomi va erining bilib-bilmay tushirgan tarsakisi uchun ajralishga shaylanayotgan kelinlarga ham saboq bo'lsa, ne ajab. Yoxud qaynonalik maqomini farzandining baxtidan ustun qo'yib, keliniga past nazar bilan qarayotgan, nevaralari ham ko'ziga ko'rinmay, "o'g'limni ajratib olib, 18 yoshligiga uylantiraman", deya kerilayotgan zamonaviy qaynonalar Hilolaning sabri-yu sadoqatini, onasini boqaman, deb bolaligidan kechib katta bo'layotgan farzandlarning so'zlarini bir eshitsalar edi. Balki bu omonat va g'animat umrning qadriga bir oz yetgan bo'larmidi.

"Nima bo'lganda ham farzandimning otasi"

20 yoshida turmushga chiqqan Hilolaning orzulari yil ham o'tmay sarobga aylandi. "Tog'ni ursa talqon qiladi", deya maqtalgan kuyovning qiliqlari oylar o'tib ko'payib boraverdi. Ayoliga past nazar bilan qarab, ichib kelib janjal qilsa ham, do'pposlab, urib, "erkak kishi ko'chaning odami", deya xo'rlasa ham oriyatini har narsadan ustun bilgan kelinchak jimgina yashayverdi. O'tirsa o'poq, yursa so'poq deya sababsiz ayblanadigan kelinning baxtiga, yaxshiyamki, qaynonasi mehribon edi. O'g'liga qarab: "Jonim bolam, to'g'ri yur, baxtingni qo'dan boy berma, axir ota bo'lding", degan so'zlari ham behuda ketdi. Yengil yashashni, beli og'rimay pul topishni kasb qilgan er birinchi farzandi tug'ilganidayoq bir qizni badnom qilgani uchun qamalib ketadi. Hayot sitamlarini sinov deb bilgan Hilola ich-ichidan o'kinsa-da, boshga tushganini ko'z ko'radi, deya hayotining mazmuniga aylangan o'g'ilchasi Oybek bilan ovunib, uy va dala yumushlari bilan band bo'lib, yillarni yolg'izlikda o'tkazadi. "Nima bo'lganda ham farzandimning otasi, odam xato qiladi, adashadi-ku", degan fikrlar bilan o'zini chalg'itib, erini kutib yashadi. Bu orada o'g'li maktabga chiqdi. Falokat oyoq ostida deganlaridek, ming



MAZKUR QR-KODNI SKANER QILISH ORQALI VIDEOLAVHAGA O'TING.

Bolaligi boy berilgan bolalar

bo'ladi. Erining jinoyatlari bois, davlat qo'ygan qarzni to'lash, ro'zgorning kamini to'ldirish Hilolaning zimmasiga tushadi. Peshonam shu ekan, deya maktabda farrosh, dalada xizmatchi, odamlarning uyida duch kelgan ishlarni qilib yurishga majbur bo'lgan ayolning ko'nglida halovati bo'lmasa ham oilasini saqlab qolish, farzandlarini tirik yetim qilmaslik uchun eriga ortiqcha bir so'z demaslikka urinadi. Qismatning beshafqatligini, peshonasining sho'rligini bahona qilgan er xotinini bo'lar-bo'lmasga urib, kaltaklansa ham, mastligida bilib-bilmay pichoq sanchib yaralasa ham bolalarim yetim bo'lmasin, otasiz o'smasin, deya tishini tishiga qo'yib yashayveradi. Bariga sabr qiladi. Balki ayollarning joni qirg'ta bo'ladi, degan naqlga uning hayoti misoldir. Andishani qo'rquv, oriyatni itoatkorlik deb tushungan er hech qancha

DAVLATIMIZ RAHBARI AYTGANIDEK, "ODAMLAR ERTAGA YOKI KELAJAKDA EMAS, BUGUN YAXSHI YASHASHNI ISTAYDI". HILOLA KABI QALBI YARALANGAN ONALAR, BOLALIGI BOLDAY O'TMAGAN FARZANLARGA BU HAYOTBAXSH SO'ZLAR MISLSIZ KUCH VA UMID BERADI.

— Ko'chalarda bolalar bilan koptok tepib, futbol o'ynash, velosiped minib yurish menga ushalmas orzu bo'lgan. Deyarli ikki yil maktabga ham bora olmadim. O'qishni juda ham xohlaganman, lekin ro'zgorga qarashib, pul topishim, kasalmand onamga yordam berishim kerak edi. Tengdoshlarim ko'cha changitib yugurib yurganini ko'rganimda xo'rimgim kelardi. Boshga bolalarnikidagidek uyda hatto televizorimiz ham bo'lmagani juda alam qilardi. Endi esa televizor, telefon va hatto velosipedim bor. Hayotimga mazmun, ushalmas orzularimga qanoat bergan, yarim ko'nglimni but qilayotgan odamlarning barchasidan minnatdorman!

"Sizlar menga ko'makchi va yelkadoshsiz"

— Hilola opa bilan uchrashganimda gaplarimni ishonchsizlik bilan eshitdi. Davlat tomonidan beriladigan ko'maklar haqida gapirganimda esa puling bo'lmasa, kim uy qurib beradi, hammasi qog'ozda, amalda hech vaqo yo'q, degan gaplarni aytdi, — deydi mahalladagi yoshlar yetakchisi Sarvarbek Mirzayev. — Men esa Prezidentimizning biz, yoshlar bilan uchrashuvdagi "Sizlar menga ko'makchi va yelkadoshsiz. Men sizlarni yutug'imizni ham, kamchiligimizni ham xalqimizga adolatli yetkazayotgan kuch deb bilaman. Sizlardan bir narsani iltimos qilmoqchiman: izlanishdan erinmanglar. Adolatni xalqqa yetkazishdan qo'rqmanglar. Nimaga desangiz, ortingizda Prezident turibdi. U zamonlar o'tib ketdi. Faqat adolat, adolat va haqiqat. Qancha ko'p haqiqatni yetkaza olsak, shuncha ko'p manfaat bo'ladi", degan so'zlarini faoliyatimga shior qilib olganim uchun ishimni vijdonan bajarishga harakat qildim. Natijasini, mana, o'zingiz ko'rib turibsiz.

Darhaqiqat, Sarvar kabi shijoatli yoshlar bugun Hilola singari yolg'iz, ko'makka muhtoj ayollar va yoshlarning hayotiga yorug'lik va ishonch olib kirishga sabab bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari aytganidek, "Odamlar ertaga yoki kelajakda emas, bugun yaxshi yashashni istaydi". Hilola kabi qalbi yaralangan onalar, bolaligi bolday o'tmagan farzandlarga bu hayotbaxsh so'zlar mislsiz kuch va umid beradi.

Gulichebra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

TUMAN HOKIMI "OPA, SIZGA YANGI UY QURIB BERILADI. DAVLATIMIZ RAHBARI BOSHCHILIGIDA HAR BIR FUQARONING HAYOTI VA SOG'LI-GIGA JAVOBGARMIZ. ENDI YIG'LAMANG. YAXSHILIKKA VA YAXSHI ODAMLAR BORLIGIGA IShONING", DEYDI VA RO'ZGORIDA ASQOTADIGAN BIR NECHA KERAKLI JIHOZLAR BERIB KETADI.

bir xayol bilan shoshib, parishon yurgan kezarida sirpanib ketdi-yu, 12 yoshida baxtsiz hodisa tufayli singan oyog'i yana aynan o'sha joyidan sinadi. Jarohat og'ir edi. Do'xtirlar maydalanib ketgan oyoq suyaklarini mustahkamlash uchun jarrohlik usulini qo'llashdi. Hiloladan boshqa yana 3 ta jo'jabirday farzandini oyoqqa turg'izayotgan ota-onasi o'zlari yashab turgan hovlining yarmini qizining operatsiyasi uchun majburiylikdan arzon-garovga sotib yubordi.

Jinoyat jazosiz qolmadi

Hilola shifokorlar va yaqinlari ko'magi bilan asta-sekin oyoqqa turadi. Bu orada eri qamoqdan chiqadi. Yaralar bitib, hammasi iziga tushayotganday edi go'yo. Oradan yil o'tib xonadonda ikkinchi o'g'il farzand tug'ildi, unga Azizbek deb ism qo'yishadi. Ammo hech qancha vaqt o'tmay, qing'ir qilimshlari sabab jajji Azizbekning otasi yana qamaladi. Bu safar amnistiya tufayli oilasi bag'riga qaytadi. Qaytadi-yu, topar-tutaridan fayz-u baraka, oilasidan xotirjamlik yo'qolganday

vaqt o'tmay boshqa ayolni nikohiga oladi. Qizining ayanchli taqdiridan qaddi dol bo'lgan ota-onasi bu safar chiday olmadi. "Bolam, hayoting hayot bo'lmasi, farzandlarini ham ado qilyapsan", deya ulami o'z hovlisiga olib keladi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, farzandining kuyovi bilan yaxshi yashab ketishiga ko'zi yetmay, qizi va nevaralarining taqdiridan xavotir olib, o'zlari yashayotgan uch xonali uyni bir xonasini ajratib beradi. Xotinni gah desa qo'lga qo'ndiraman, degan erga bu og'ir botdi. Nima qilsam ham indamay yashayveradi, degan xudbin xayol balki uning miyasini egallab olgani uchun ham oilasini ayamagandir. Hilola unga ortiq bunday hayotga chiday olmasligini, tashvishlar-u azoblar, sababsiz kaltaklar-u tahqirlashlardan bezib, to'yib ketganini ochiq aytadi. Shunda er xotinining tomog'iga tig' tortadi. Shovqini eshitgan ota-onasi va yaqinlari kelib, uni qutqarib qolishadi. Bu xo'rlikka chiday olmagani otasi insult, onasi esa infarktni boshdan o'tkazdi. Albatta, jinoyat jazosiz qolmadi. Lekin ozorlar va azoblarning izi yillar o'tsa hamki bitmadi, bitmasa ham kerak...

Deyarli ikki yil maktabga bora olmadim

Kenja o'g'il Azizbekning mungli ko'zlariga boqar ekanmiz, negadiri yillarlang zalvorli va beshafqat zarbalari bu o'smirning bo'yniga turmush tashvishlarini juda ham erta ilib, erta ulg'aytirib qo'ygandek tuyuldi.